

# SO'FIYLIKNING MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYA TIZIMIDAGI ROLI: INSON VA JAMIYAT MUNOSABATLARI

**Tuychiyev Zafar Nardanqulovich**

Farg'ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22668921>

Qabul qilindi: 1-sentabr 2026-yil • Ma'qullandi: 7-sentabr 2026-yil • Nashr qilindi: 8-sentabr 2026-yil

## Annotatsiya.

Mazkur maqolada so'fiylikning insoni ma'naviy-axloqiy jixatdan kamolotga erishish yollari haqida fikr-mulohazalar keltirilgan. Shuningdek, inson va jamiyat munosabatlarida so'fiylikning ma'naviy-axloqiy tarbiya tizimidagi roli ma'naviy hayotida va milliy madaniyatida chuqur o'rin olganligiga munosabat bildirilgan.

## Kalit so'zlar:

Fusullat, Sufizm, metafizik, Tvorets, sadoqat, zohidlik, tariqat, tasavvuf, axloq, kamolot, Vaqfiya, nafs.

## Kirish (Introduction).

So'fiylikning ma'naviy-axloqiy tarbiya tizimidagi roli inson va jamiyat munosabatlarini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. So'fiylik nafaqat diniy ta'limot sifatida, balki ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirish va insonning ruhiy kamolotga erishish yo'lini ko'rsatadigan tarbiya tizimi sifatida namoyon bo'ladi.

Inson nafsini tarbiya qilish, uni poklash, moddiy dunyoga kamroq muhabbat qo'yish va Alloh bilan yaqinlikka intilish so'fiylikning markaziy g'oyalari. Bu g'oyalar insonning shaxsiy munosabatlarida mehr-shafqat, insof, to'g'riso'zlik, sabr-toqat va adolat kabi xislatlarni rivojlantiradi, shu tariqa shaxsning ichki ma'naviyatini boyitadi. So'fiylik jamiyatda axloq va odob-axloq normalarini ustuvor qiladi. So'fiylikdagi o'zaro hurmat, insonlarga g'amxo'rlik qilish, muhtojlarga yordam berish kabi qadriyatlar jamiyatda barqarorlik va birdamlikni ta'minlaydi. Bu qadriyatlar ijtimoiy munosabatlarda adolat, bag'rikenglik va o'zaro anglashuvni rivojlantiradi. Insonlar o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlash va ijtimoiy adolatni ta'minlashda so'fiylik katta rol o'ynaydi. «Islom dini odob tamoyillarini ham eng go'zal va mukammal tarzda ko'rsatadi. Inson ota-onasiga, ahli ayoliga, farzandlariga qanday muomalada bo'lishi kerak – bu masalalarga oydinlik kiritdi.

- **Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** Inchunun, Alloh taolo Qur'oni karimda Janobi Payg'ambarimiz (s.a.v.) bilan sahobalar o'rtasidagi odob qoidalarini g'oyat inja bir tarzda o'rgatadi. Masalan, ba'zi badaviylar Payg'ambarimiz (s.a.v.) huzurlarida baland ovozda gapirganlarida, Alloh taolo: «Payg'ambar huzurida ovozingizni uning ovozidan baland ko'tarmangki, bilmagan holda amallaringiz yo'qqi chiqadi», mazmunidagi oyati karimani nozil qildi. Buyuklarimiz: «Odob bo'lmagan amniyatli (ishonchli) bo'lmas. Amniyatli bo'lmagan esa tahlikalidir», deyishgan. Ya'ni, xoinlik, xiyonat qilishi mumkin. Shuning uchun odob o'ta muhim va ahamiyatlidir. Solih insonlarga, buyuklarimizga, olimlarga nisbatan odobli bo'lmagan kishidan xayr, marhamat kutilmaydi...

Tabiiki, eng avvalo Robbimizga bo'lgan odobimizga diqqat etmog'imiz kerak. Undan keyin Rasululloh (s.a.v.), sahobai kiromlar, olimlar, mashohiyalar, keksalar va oila a'zolariga nisbatan odob-axloq qoidalarig amal etish keladi. Bu boradagi o'lchov-mezonni Islom dini o't diqqatlik

bilan chizib-belgilb bergan. Bu qoida va mezonlarga rioyasiz kishi muttahi bo'lmaydi. Tasavvuf dinimizning odob-axloq borasidagi ana shu tavsiyalarini hayotga tatbiq etishga chorlaydi»[1, 79-80].

So'fiylik ta'limoti jamiyat a'zolarini bir-biriga mehr-muruvvat bilan munosabatda bo'lishga chaqiradi. Bu ta'limot jamiyatda insonparvarlik, hamkorlik va bahamjihatlikni rag'batlantiradi. Shuningdek, insonning ma'naviy kamoloti jamiyatga foydali bo'lishini va umumiy manfaatlar yo'lida ishlashini rag'batlantiradi. So'fiylikdagi ma'naviy-axloqiy g'oyalar jamiyatda tinchlik va totuvlikni saqlashga xizmat qiladi. M.Doganning yozishicha: «O'sha davr musulmonlariga xos bo'lgan narsa daromad va foydalarni umumiy farovonlikni quvvatlash uchun foydalanish mumkin bo'lgan. Va bu butun insonparvarlik tarkibi islom orqali yoritilgan va davlat tomonidan ma'qullangan»[2, 31].

**- Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** So'fiylik insonning jamiyat oldidagi ma'naviy va axloqiy mas'uliyatini ham ta'kidlaydi. Inson nafaqat shaxsiy ma'naviy kamolotga intilishi kerak, balki jamiyatdagi adolat, tinchlik va birdamlikni saqlashda faol ishtirok etishi lozim. Shuningdek, insonlar o'rtasidagi mehr-shafqat va bag'rikenglikni targ'ib qilish, yordamga muhtojlarga yordam berish kabi jamiyatni yaxshilashga qaratilgan ma'naviy faoliyatlar so'fiylik ta'limotining muhim jihatlari. So'fiylikning ma'naviy-axloqiy tarbiya tizimi inson va jamiyat munosabatlarini mustahkamlashga qaratilgan kompleks tarbiya tizimi bo'lib, insonning ma'naviy kamoloti, jamiyatda axloqiy qadriyatlarni shakllantirish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Jumladan, Qur'oni Karimning «Kahv» surasidagi: «Ayting, hech shak-shubha yo'kki men ham sizlar kabi bir odamdirkim...» [3], deyilsa, «Fusullat» surasida ham: «Ayting, hech shak-shubha yo'kki men ham xuddi sizlar kabi odamdirkim»[3] deyiladi.

Sufizm (tasavvuf) insonni nafaqat Allohga, balki uning atrofidagi olamga va jamiyatga bo'lgan munosabatini qayta shakllantiruvchi tarbiya metodikasini taklif qiladi. So'fiylikning asosiy konsepsiyalaridan biri bo'lgan «Kamolga yetgan inson» (Inson komil) g'oyasi bu o'rinda muhim ahamiyat kasb etadi. So'fiylikda «Kamolga yetgan inson» haqidagi tasavvur jamiyatda ham ma'naviy, ham ijtimoiy ideal sifatida namoyon bo'ladi. So'fiylik insonni nafs va havoyi istaklardan xalos bo'lib, ruhiy tozalanish va kamolot sari intilishga undaydi. Bu g'oya inson va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilashda muhim o'rin tutadi, chunki «Kamolga yetgan inson» jamiyatning axloqiy, ma'naviy asosini tashkil etadi. Uning shaxsiy kamolotga intilishi jamiyatning umumiy ma'naviy holatini yaxshilashga olib keladi.

So'fiylikdagi asosiy g'oyalardan biri bo'lgan yorug'lik va ichki nur insonning ruhiy kamoloti bilan bog'liqdir. So'fiyga ko'ra, inson o'z qalbida yorug'likni topishi kerak, bu yorug'lik esa uning Tvorets (Alloh) bilan yaqinligini anglatadi. Bu g'oya inson va jamiyat munosabatlarini yaxshilash uchun muhim hisoblanadi, chunki inson ma'naviy nurni topganida uning axloqiy va ijtimoiy mas'uliyati ham kuchayadi. So'fiylik ta'limotida jamiyat ham inson kamolotiga ko'maklashishi lozim, chunki inson nafaqat o'zini, balki butun jamiyatni yaxshilashga intilishi kerak. Bu jarayonda «Kamolga yetgan inson» so'fiylarning axloqiy va ma'naviy ideali sifatida jamiyatdagi axloqiy qadriyatlar va ijtimoiy munosabatlar shakllanishida asosiy o'rinni egallaydi. So'fiylik ta'limoti inson va jamiyatni bir-biridan ajralmas ruhiy va ma'naviy butunlik sifatida qaraydi.

So'fiylik, diniy va axloqiy to'kislikka erishishga qaratilgan, insonning ichki dunyosiga chuqurroq e'tibor qaratadi. Bu insoniy holatning jamiyat bilan o'zaro munosabatlardagi o'rni va ahamiyatini tushunishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Ta'kidlash joizki, zamonaviy jamiyatda insonlar ko'pincha tashqi yoki materialistik qadriyatlarga ko'proq ahamiyat qaratadilar, bu esa ichki ma'naviy hayotni zaiflashtiradi. So'fiylikning asosiy g'oyalardan biri insonning ichki dunyosi va uning ruhiy holi bilan bog'liq masalalarni o'rganishdir.

So'fiylar inson qalbining har bir harakatiga va uning amallarining pinhoni motivlariga chuqur analiz berishgan. So'fiylikdagi tarbiya jarayoni, shaxsning ma'naviy yuksalishi, nafsni tarbiyalash va axloqiy poklanish bilan bog'liq bo'lib, bu jarayon jamiyatning umumiy axloqiy meyorlarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Hozirgi davrda insonlar va jamiyat o'rtasidagi aloqalarda ratsionalizm va pragmatizmning hukmronligi insonning ma'naviy qadriyatlarini susaytirmoqda. Bu holatda so'fiylikning ahamiyati yanada kuchaymoqda, chunki u insonga ichki yuksalish, nafsni poklash va intuitiv ma'rifiylikka erishishni o'rgatadi. Masalan, so'fiy uchragan

ruhiy holatlar, misol uchun ekstaz, insonni ruhiy yuksalishga olib chiqish jarayonida muhim rol o'ynaydi. Bu holat inson va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarga ta'sir ko'rsatib, insonni ma'naviy qadriyatlarga o'zida mustahkamlanishiga yordam beradi. Bunday fikrlarning dolzarbligi hozirgi davrda, xususan postsovmenniy jamiyatning ratsionalistik va pragmatik yondashuvlari ostida, yanada oydinlashadi. So'fiylik esa insonlarning ichki hayotiga diqqat qaratib, ularni ruhiy va axloqiy yuksalishga chorlaydi. Bunda so'fiylar insonning shaxsiy ma'naviy rivojlanishi jamiyatning umumiy axloqiy holatiga qanday ta'sir ko'rsatishi mumkinligini ko'rsatadilar. So'fiylik, shuningdek, insonning axloqiy to'kisligi va ma'naviy uyg'onishi uchun yo'l-yo'riq sifatida jamiyatda qadriyatlar va meyorlarni mustahkamlashda muhim o'rin tutadi. Shuning uchun so'fiylik nafaqat shaxsiy ma'naviy rivojlanishga e'tibor beradi, balki inson va jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni mustahkamlashda ham muhim rol o'ynaydi.

So'fiylikning ma'naviy-axloqiy tarbiya tizimidagi roli inson va jamiyat munosabatlarini ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilish — bu inson ruhiy dunyosi va jamiyatning ijtimoiy tuzilmalari o'rtasidagi dialektik munosabatlarni chuqur o'rganishni talab qiladi. So'fiylikning falsafasi, asosan, inson ruhiyatini, uning o'ziga xos bo'lgan ruhiy kamolotga erishish jarayonlarini qamrab oladi. So'fiylik faqat insonning ruhiy kamolotiga emas, balki jamiyatning ma'naviy-axloqiy barqarorligiga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Alisher Navoiy o'zining "Vaqfiya" sida shunday yozadi: "Butun osmon va osmondagi jamiki narsalar, butun Yer yuzi va Yer yuzidagi ja'mi narsalar, hamma dengizlar va unda mavjud bo'lgan hamma narsalar, hamma mamlakatlar va ularda bir bo'lgan ja'mi ne'matlar bari eng yaxshi narsalar inson uchun, uning baxt-saodati uchun yaratilgan. Bularning jami insonga xizmat qilmog'i kerak" [4, 56].

So'fiylik insonning ichki ruhiy olamining har bir harakati jamiyatga bevosita ta'sir qilishini ta'kidlaydi. So'fiylarning ta'limotlariga ko'ra, har bir inson o'zini ruhiy tarbiya qilish orqali nafaqat shaxsiy kamolotiga, balki jamiyatdagi ma'naviy-axloqiy tartiblarning mustahkamlanishiga hissa qo'shadi.

So'fiylikning asosiy g'oyasi insonning o'zini ma'naviy kamolotiga yetkazishi, nafs ustidan g'alaba qozonishi va ichki poklik orqali haqiqatga yaqinlashishidir. Bu jarayon nafaqat shaxsiy kamolot, balki jamiyatda adolatli munosabatlarni barpo etishga ham qaratilgandir. So'fiylik ta'limoti insonning jamiyat bilan aloqasida ma'naviy ideallar va axloqiy tamoyillarni mustahkamlashni nazarda tutadi. So'fiylar, jamiyatning turli ijtimoiy tuzilmalaridagi zulm va adolatsizliklarga qarshi chiqib, inson huquqlari, inson qadr-qimmati va shaxsiy erkinliklar uchun kurashganlar. Bu jarayonda ular jamiyatdagi konformizm va sun'iy chegaralarni tanqid qilishgan. «Haqiqatning birinchi maqomi – tuproq bo'lish, ikkinchi maqomi – yetmish ikki millatni ham ayblamaslik va kamsitmaslik. Uchinchi maqomi – qo'ldan kelganni ayamasklik. To'rtinchi maqomi – dunyoda yaratilgan barcha narsalardan emin bo'lmoqda. Beshinchi maqomi – mulk sohibiga yuz burib, ko'z yoshi to'kmoqdir. Chunki vahdat unga xosdir. Oltinchi maqomi – suhbatda haqiqat sirlarini so'zlash. Yettinchi maqom – sayri suluk. Sakkizinchi maqom – sir. To'qqizinchi maqom – munajat. O'ninchi maqomi – haq taolaga yetishmoqdir» [5, 20].

So'fiylikdagi tarikat g'oyasi insonning metafizik haqiqatga intilishi va shu bilan birga jamiyatdagi ijtimoiy-axloqiy normalarni qayta ko'rib chiqishni rag'batlantiradi. Bu insonning ma'naviy kamolotiga nafaqat shaxsiy yo'l sifatida, balki ijtimoiy burch sifatida qarashini.

So'fiylik, yoki tasavvuf, inson va jamiyat munosabatlarida juda katta ma'naviy-axloqiy ahamiyatga ega bo'lgan ijtimoiy-ruhiy tizim sifatida namoyon bo'ladi. So'fiylikning asosiy maqsadi insonni Allohga yaqinlashtirish, ma'naviy tarbiya orqali uning ichki olamini poklashdan iborat. So'fiylar o'zlarini Allohning muhabbatli qullari sifatida tanitishadi va o'zlarining axloqiy hayotlarini asketizm, sabr-toqat, tafakkur va ruhiy tarbiya asosida qurishadi.

Ilmlar asta-sekin ko'ngillardan satlarga ko'chib, fiqh, usuli fiqh, kalom, tafsir va hokazo ilmlarga oid asarlar yozila boshlanganida, tasavvuf yo'liga mansub kishilar ham o'z tariqatlariga doir asarlar bita boshladilar. Ularning ba'zilar vara' taqvo, axz va tarkka ahamiyat berib, nafs haqida kitoblar yozdilar» [6, 24-25].

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Jamiyatga ta'sir nuqtai nazaridan, so'fiylik so'fiy jamoalari orqali madaniy va ma'naviy muhitni shakllantirgan. Bu jamoalar, ya'ni tariqatlar, jamiyatning ijtimoiy muvozanatini saqlashda, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni yoyishda katta

ahamiyatga ega bo'lgan. So'fiy jamoalaridagi murshidlar va shogirdlar o'rtasidagi munosabatlar, faqat ma'naviy rivojlanish emas, balki ijtimoiy yordam va tayanch berish vazifasini ham o'tagan. Bu jamoalar so'fiylar orasida ixtiloflarni hal qilish, jamiyatda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash bilan jamiyat barqarorligini ta'minlashga yordam bergan.

So'fiylikning ijtimoiy-falsafiy tahlili shuni ko'rsatadiki, bu ta'limot jamiyatda o'zaro bag'rikenglik, mehr-muhabbat va hamjihatlikni qo'llab-quvvatlagan. So'fiylarning ta'limotlari, masalan, insonlarning bir-biriga g'amxo'rlik qilish, ularning o'zaro hurmati va jamoaviy muammolarni birgalikda hal qilishga chaqirgan. Shu tariqa, so'fiylik jamiyatda ijtimoiy adolat va tinchlikni ta'minlashga qaratilgan ma'naviy ta'sir ko'rsatgan. Tasavvuf ta'limotiga ko'ra, jamiyatning barqarorligi insonlarning ma'naviy kamoloti bilan bog'liqdir. So'fiylik insonlarni dunyoviy manfaatlardan voz kechishga va axloqiy tozalanishga chaqirish orqali nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy ma'naviyatni yuksaltirishga qaratilgan yo'llarni ko'rsatadi. So'fiylik jamiyatdagi ma'naviy qadriyatlarni mustahkamlash orqali uning barqarorligini ta'minlashga yordam beradi.

Insonning ma'naviy va axloqiy negizlari bo'yicha yuzaga kelayotgan global muammolarni hal qilish uchun So'fiylik kabi ma'naviy-ma'rifiy tizimlar jamiyat uchun muhim vosita bo'lishi mumkin. So'fiylik inson va uning ruhiy olamiga e'tibor qaratgan holda, uning yaratuvchi bilan aloqasini va uning jamiyatdagi vazifasini anglashga ko'maklashadi. So'fiylikning asosiy g'oyalardan biri bu – insonning nafsini tiyish, o'zini ma'naviy ravishda yuksaltirish va xudo bilan yaqin aloqada bo'lishdir. Bu g'oyalar insoniyatga faqat shaxsiy darajada emas, balki jamiyatga xizmat qilish, boshqalar bilan yaxshi muomalada bo'lish, insoniyatga tinchlik va adolat olib kelishi uchun ham muhimdir.

Zamonaviy jamiyatda yuz berayotgan o'zgarishlar, ayniqsa, individualizm, egoizm, va dunyoviy boylikka intilgan holda ruhiy qadriyatlarni yo'qotish kabi tendensiyalar So'fiylikning ma'naviy-axloqiy tarbiya tizimining ahamiyatini yanada kuchaytirmoqda. Ma'naviy boylik va axloqiy qadriyatlardan chetlashish, ayniqsa, yoshlar o'rtasida axloqiy va ma'naviy krizisga olib kelishi mumkin, shu bois So'fiylikning o'rgatishlari zamonaviy insonning ma'naviy uyg'onishida va jamiyatning ma'naviy-axloqiy barqarorligini saqlashda muhim ahamiyatga ega.

So'fiylikni madaniy shakl sifatida ko'rib chiqishda, uning asosiy maqsadi insonning ma'naviy o'sishi va axloqiy mukammallikka yetishi hisoblanadi. Bu narsa o'z-o'zini rivojlantirish bilan bog'liq va turli sivilizatsiyalar doirasida turlicha namoyon bo'ladi. Ali ibn Usmon al-Xujviri tomonidan uch turdagi madaniyatlar – dunyoviy, diniy va "tanlanganlar madaniyati" – klassifikatsiyasi buning yorqin misolidir. Sufizmni "tanlanganlar madaniyati" deb atash orqali, al-Xujviri uning faqat ma'naviy va axloqiy zaruriyatlarga asoslanganligini ta'kidlaydi, bu esa uni jamiyatning umumiy qonunlari va normalaridan mustaqil qiladi.

So'fiylikning jamiyatga va insonlarga bo'lgan ta'siri uning ta'limotiga kiruvchi asosiy g'oyalarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu g'oyalar ma'naviy ozodlik, ichki tozalanish va xudoni tushunishga intilishga qaratilgan. So'fiylikdagi shaxsiy taraqqiyot jarayoni, o'z-o'zini komillashtirishga e'tibor qaratiladi, bu jarayon esa insonning jamiyat bilan munosabatlarini yaxshilashga sabab bo'ladi. Gegel va Shpengler kabi g'arbiy faylasuflar madaniyatni rivojlanishning uch turli shaklida ko'rishadi, shuningdek, so'fiylik ham ular tomonidan tadqiq etilgan, chunki uning ta'siri va afkorlari nafaqat sharqda, balki g'arb sivilizatsiyasida ham katta qiziqish uyg'otgan. So'fiylikning g'arb sivilizatsiyasiga bo'lgan ta'siri uch yo'nalishda ko'zga tashlanadi: g'arb mutafakkirlariga ta'sir qilgan g'oyalar, so'fiylikni tadqiq etish va uning maktablarini vujudga keltirish. Abuxomid Muxammad al-G'azzoliy kabi mashhur so'fiy ulamlarining asarlari g'arb falsafasiga kuchli ta'sir ko'rsatgan. Uning «Ehyo ulum ad-din» va «Saodatning eliksiri» kabi asarlari Yevropa olamiga yetib borgan va uning falsafasi Foma Akvinskiy, Paskal kabi mutafakkirlarga ta'sir ko'rsatgan. Ushbu tahlillar shuni ko'rsatadiki, so'fiylik nafaqat shaxsiy ma'naviy rivojlanish yo'li, balki jamiyatdagi ma'naviy taraqqiyotning ham muhim omili bo'lib, u inson va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni chuqurlashtiradi.

So'fiylik falsafasida insonning ruhiy va axloqiy tarbiyasi urushlar, zo'ravonlik va egoizmga qarshi insoniylik, hamdardlik va kamtarlikni targ'ib qilish orqali jamiyatda barqarorlikka erishishga qaratilgan. So'fiylar, shu jumladan mashhur shoirlar, shu vaqtlardagi axloqiy qadriyatlarni saqlash va ularni ijtimoiy muhitga kiritishda katta rol o'ynaganlar. Qur'onda

shoirilar haqida ba'zi salbiy fikrlar mavjud bo'lsa-da, bu tanqid so'fiylik shoirlariga emas, balki insonlarni yomon yo'llarga olib boradigan shovinistik she'riyatga qaratiladi. So'fiylik poeziyasi axloqiy tarbiyaning muhim vositasi bo'lib, insonlarni Allohga yaqinlashtirish, ruhiy ravnaq va kamol topishga chaqiradi. Bu poeziya insonning nafsini yengib, jamiyatga xizmat qilishni targ'ib qiladi.

**Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).** Bugungi kunning global muammolari, ayniqsa ekologiya va siyosat sohasidagi ziddiyatlar, insonning ichki dunyosiga va uning ma'naviy ehtiyojlariga e'tiborsizlik oqibatida kelib chiqmoqda. So'fiylar ta'limoti, muhabbat va sabr-toqat, inson qalbidagi asosiy kuchlar orqali insonlarning ichki hayotini boyitishga qaratilgan, va bu jarayon jamiyatda umumiy yaxshilik va hamjihatlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, so'fiylik inson va uning jamiyatdagi roliga chuqur ma'naviy asos beradi, uning ta'limotlari insonni nafaqat shaxsiy ruhiy kamolotga, balki jamiyatga fidoyilik bilan xizmat qilishga undaydi. Jamiyatdagi tartib-intizom va hamjihatlikni so'fiylikning axloqiy va ma'naviy tamoyillari orqali ta'minlash inson va jamiyat munosabatlarini yanada mustahkamlaydi.

#### Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Умар Фарух Сайдо ал-Жазарий. Тасаввуф сирлари. Тошкент: Мовароуннахр, 2000. –Б. 79-80.
2. Қаранг: Шарль Р. «Мусулманское право» китобидан олдинди. - М., 1952. –Б. 31.
3. Қаранг: Куръони карим, «Кахф» сураси, 110-оят, «Фусуллат» сураси, 6-7-оятлар; «Анъон» сураси, 50-оят; «Ал-исро» сураси, 93-95-оятлар; «Фуокон» сураси, 7-8-оятлар.
4. Навоий А. Вакфия. - Тошкент: Фан, 1991. –Б. 56.
5. Ҳожи Бектоши Валий. Мақолот. Тошкент, 2000. –Б. 20.

## РОЛЬ СУФИЗМА В СИСТЕМЕ ДУХОВНО-ЭТИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ: ОТНОШЕНИЯ ЧЕЛОВЕКА И ОБЩЕСТВА

#### Аннотация

В данной статье собраны мнения о путях суфизма достижения совершенства с духовно-нравственной точки зрения. Также роль суфизма в системе духовно-нравственного воспитания во взаимоотношениях человека и общества была глубоко укоренена в духовной жизни и национальной культуре.

#### Ключевые слова:

Фусуллат, Суфизм, метафизика, Творец, верность, аскетизм, порядок, мистика, мораль, совершенство, Вакфия, низшее эго.

## THE ROLE OF SUFISM IN THE SYSTEM OF SPIRITUAL AND ETHICAL EDUCATION: RELATIONSHIPS BETWEEN MAN AND SOCIETY

#### Abstract

This article contains opinions on the ways of Sufism to achieve perfection from a spiritual and moral point of view. Also, the role of Sufism in the system of spiritual and moral education in the relationship between man and society was deeply rooted in spiritual life and national culture.

**Key words:**

Fusullat, Sufism, metaphysics, Creator, fidelity, asceticism, order, mysticism, morality, perfection, Waqfia, lower self.